

BANK MUOMALALARIDA “MUSHORAKA” VA “MUZORABA” AQDLARINING QO‘LLANILISHI

Mirzaev Kamoliddin Abduxalilovich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

“Islomshunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada islom huquqida, xossatan, bank muomalalarida mushoraka, muzoraba ishlatilishi va ularning insonlar orasidagi muomalalarda foydalanish usulari keltirib o‘tildi va fiqhiy istilohlar qiyosiy tahlil qilib berish orqali mavzu ochib berilgan.

Kalit so‘zi: mushoraka, muzoraba, sherik, rabb ul-mol, hanafiy, qarz, hanbaliy, molikiy, sarmoya, tijorat, foyda, shartnoma.

«Muzoraba» sherikchilikning maxsus turi bo‘lib, unda bir sherik ikkinchi tomonning tijoratiga sarmoya kiritish maqsadida pul berib sherikchilik qiladi. Sarmoya kiritish «Rabb ul-mol» deb ataluvchi birinchi sherik tomonidan amalga oshirilsa, ish yuritish «muzorib» deb ataluvchi ikkinchi tomonning majburiyati hisoblanadi¹.

Mushoraka va muzoraba quyidagi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi:

1. Mushorakada sarmoya barcha sheriklar tomonidan kiritilsa, muzorabada esa bu faqat rabb ul-molning vazifasi hisoblanadi.

2. Mushorakada barcha sheriklar ish boshqarish va yuritishda qatnashishlari mumkin, ammo muzorabada biznes boshqaruv faqatgina muzorib tomonidan olib boriladi va rabb ul-molning bunga haqi bo‘lmaydi.

3. Mushorakada ko‘rilgan zarar barcha sheriklar kiritgan sarmoyalarining ulushiga mutanosib ravishda bo‘linadi. Muzorabada esa muzorib sarmoya kiritmagani tufayli zarar rabb ul-mol zimmasida bo‘ladi. Muzoribning ko‘rgan zarari uning qilgan mehnati foydasiz tugallanganligi bilan cheklanadi.

Ammo ushbu holatda muzorib o‘sha turdagi tijorat faoliyati talab qiladigan barcha choralarni qo‘llagan bo‘lishi lozim. Agar u o‘z vazifasini e‘tiborsizlik bilan bajargan bo‘lsa yoki vazifasini suiiste‘mol qilib insofsizlik qilgan bo‘lsa, ko‘rilgan zarar uning zimmasiga yuklatiladi².

4. Mushorakada sheriklarning majburiyatlari, odatda, cheklanmagan bo‘ladi. Shu sababli agar sherikchilik tijoratining majburiyati uning aktivlari qiymatidan oshib ketsa va tijorat likvidatsiya orqali tugatilsa, qo‘shimcha majburiyatlar, ya‘ni qoplanmagan qarzlar sheriklarning ulushlariga muvofiq ravishda bo‘linib qoplanadi. Agar sheriklar tijorat faoliyati davomida hech bir tomon qarzdor bo‘lmaslik shartini

¹ Mulla Xusrav. Durar al-hukam sharh al-g‘urar al-ahkom. – Saudiya: Dor al-ihya kutub. – J. 2. B. 310.

² Alouddin Xaskafiy. Durrul Muxtor sharh at-tanvir al-absor. – Bayrut: Dor al-kutub ilmiyya. – B. 535.

kelishib olgan bo'lsalar, unda qarzdorlik majburiyati ushbu shartni buzgan sherik zimmasiga yuklatiladi³.

Muzorabada esa rabb ul-mol muzoribga uning nomidan qarz olishga ruxsat bermagan bo'lsa, rabb ul-molning majburiyati u kiritgan sarmoyadan ortiq bo'lmaydi⁴.

5. Mushorakada sheriklar o'z sarmoyalarini o'rtadagi kapitalga qo'shib yuborganlaridan keyin sheriklar ulushlar mutanosibligi bo'yicha sherikchilikning umumiy mulkiga birgalikda egalik qiladilar. Shu sababli sheriklar hali savdo amalga oshmasdan ham o'rtadagi mulkning qiymati oshishi bilan foyda ko'rishlari mumkin.

Muzorabada bu holat tamoman farq qiladi. Bunda muzorib tomonidan sotib olingan barcha mahsulotlar rabb ul-molga tegishli bo'ladi va muzorib ushbu mahsulotlarni foydaga sotgandagina ko'rilgan foydadan o'z ulushiga da'vo qilishi mumkin. Mulk rabb ul-molga tegishli bo'lgani uchun muzorib mulkning qiymati oshishidan ko'rilgan foydadan ulush olishga haqli bo'lmaydi.⁵ "Shunga qaramay, ba'zi faqihlar mulk tabiiy ravishda o'ssa, ko'rilgan foyda rabb ul-mol va muzorib o'rtasida taqsimlanishi mumkin deb ta'kidlashgan. Misol uchun, agar mulk qo'y podasidan iborat bo'lsa, tug'ilgan qo'zichoqlar sherikchilikning foydasi sifatida qabul qilinadi va tomonlar o'rtasida kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Lekin bu ozchilikdan iborat faqihlarning fikri hisoblanadi."

Rabb ul-mol muzorib uchun muayyan tijorat turini belgilab, sarmoya faqat o'sha tijoratga kiritilishini aytsa, bunday sherikchilikka muzoraba al-muqayyada, ya'ni cheklangan muzoraba deyiladi. Lekin rabb ul-mol sarmoya kiritishni muzorib ixtiyoriga qoldirsa, unda muzorib o'zi to'g'ri deb bilgan har qanday tijoratga sarmoya kiritishi mumkin. Ushbu turdagi muzoraba cheklanmagan bo'lib, muzoraba al-mutlaqah deb nomlanadi.

Rabb ul-mol birgina oldi-berdi uchun bir necha kishi bilan muzoraba shartnomasiga kirishi mumkin. Bunda rabb ul-mol sarmoyani A tomonga ham, B tomonga ham kiritadi va ularning har biri rabb ul-mol uchun muzorib sifatida tijorat qiladi. Ikkala muzorib kiritilgan sarmoyani birgalikda ishlatadi va har bir muzorib oldindan kelishilgan ulushga ega bo'ladi.⁶ Bunda ushbu muzoriblar tijoratdagi o'zaro munosabatlarda xuddi sherikdek ish yuritadilar.

Muzorib yoki muzoriblar tijoratning odatiy faoliyati taqozo etadigan barcha ishlarni bajarishga vakolatli hisoblanadilar. Lekin odatdan tashqari bo'lgan ishlarda rabb ul-molning aniq-ravshan ruxsati talab qilinadi.

Muzoraba to'g'ri deb topilishi uchun shartnoma kuchga kirishdan avval tomonlar foydadagi ulushlarini kelishib olishlari shart. Muzoraba foydasini taqsimlashda

³ Abduaniy Maydoniy. Lubob. – Bayrut: Maktaba ilmiya. – J. 2. –B. 121.

⁴ Abdug'aniy Maydoniy. Lubob. – Bayrut: Maktaba ilmiya. – J. 2. – B. 136.

⁵ An-Navaviy. Ravdat at-Tolibiy. – Saudiya: Maktaba tavqifiyya. – J. 5. – B. 125.

⁶ Ibn Qudomah. Al Mug'niy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J.:5. – B. 145.

ulushlarning nisbati haqida shariatning qat'iy ko'rsatmalari yo'q, bu masala tomonlarning o'zaro kelishuviga qoldirilgan. Foydani teng bo'lib olishlariga ham, har xil nisbatda bo'lib olishlariga ham ruxsat berilgan. Lekin yaxlit pul miqdori ko'rinishida yoki kiritilgan sarmoyadan ma'lum foiz miqdorida foyda olish taqiqlanadi. Masalan, kiritilgan sarmoya o'n million so'm bo'lsa, ko'rilgan foydaning 1 millioni muzoribga yoki kiritilgan sarmoyaning 20 foizi rabb ul-molga foyda qilib belgilansin deb kelishib bo'lmaydi. Ko'rilgan foydaning, masalan, 40 foizi muzoribga, 60 foizi rabb ul-molga taqsimlanadi deb kelishsa bo'ladi⁷.

Turli vaziyatlar uchun turi xil nisbatlarni kelishish joiz sanaladi. Misol uchun, rabb ul-mol muzoribga: «Agar bug'doy bilan savdo qilsang, foydaning yarmini olasan, agar un bilan savdo qilsang, foydaning uchdan birini olasan», - deyishi mumkin. Shuningdek, «Agar o'z shahringda ishlasang, 30 foiz foyda seniki, agar boshqa shaharda ishlasang, 50 foiz foyda seniki», – deyishi ham joiz.⁸

Muzoribning foydadan oladigan ulushidan tashqari oylik maosh, xizmat haqi yoki mukofot puli da'vo qilishi joiz emas.⁹ Barcha fiqh maktablari bu masalada ittifoq bo'lishgan. Faqat Imom Ahmad muzoribning kundalik ovqat xarajatlarini muzoraba hisobidan olishi joiz degan.¹⁰

Hanafiy faqihlariga ko'ra, muzorib qachonki o'zining shahridan muzoraba tufayli boshqa shaharga safar qilsa, shaxsiy xarajatlar, turarjoy, ovqat va boshqa xarajatlar uchun haq talab qilishga haqli bo'ladi. Ammo o'z shahrida bo'lganda kundalik xarajatlar uchun pul olishi joiz emas.¹¹

Agar tijorat ba'zi oldi-berdilarda foyda ko'rsa, ba'zilarida zarar ko'rsa, foyda eng avvalo zararni qoplashga yo'naltiriladi. Shundan so'ng foydaning qolgan qismi tomonlar o'rtasida kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.¹²

Muzoraba shartnomasini tomonlarning biri istalgan vaqtda bekor qilishi mumkin. Bekor qilishning yagona sharti boshqa tomonga bu haqida xabar berishdir. Shartnomani bekor qilish vaqtida barcha aktivlar naqd pul shaklida bo'lsa va sarmoyadan ma'lum miqdor foyda ko'rilgan bo'lsa, u kelishilgan nisbatda tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Agar aktivlar nolikvid ko'rinishda bo'lsa, ko'rilgan foydaning miqdorini aniqlash uchun muzoribga ushbu aktivlarni sotib naqd pulga aylantirish imkoniyati beriladi.¹³

Musulmon fuqaholari muzoraba shartnomasining davomiyligi haqida turli fikrlar bildirishgan. Hanafiy va hanbaliy mazhabiga ko'ra, muzorabaning muddati muayyan muddat davri bilan cheklanadi, misol uchun, olti oy, bir yil va hokazo. Mana shu

⁷ Abdurrahmon Shayxzoda. Majma' anhur sharh multaqa al-abhur. – J. 2. B. 321.

⁸ Alouddin al-Kosoni. Badoi' as-sanoi'. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J: 6. – B. 99.

⁹ Saraxsiy. Al Mabsut. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J: 22. – B. 149 – 150.

¹⁰ Ibn Qudomah. Al Mug'niy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – Jild. 5. – B. 186.

¹¹ Alouddin al-Kosoni. Badoi' us-sanoi'. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J: 6. – B. 109.

¹² Ibn Qudomah. Al Mug'niy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J. 5. – B. 168.

¹³ Alouddin al-Kosoni. Badoi' as-sanoi'. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J. 6. – B. 109.

muddatdan soʻng tomonlarning ogohlantirishsiz ham muzoraba shartnomasi bekor boʻladi. Bu fikrga qarshi oʻlaroq, shofeʼiy va molikiy mazhabi ulamolari muzoraba maʼlum muddat bilan chegaralanmaydi deb fikr bildiradilar.¹⁴

Ushbu ixtilofli fikrlar faqatgina muzoraba shartnomasining maksimal muddati boʻyicha boʻlgan. Ammo muzoraba shartnomasining minimal muddati haqida fiqh kitoblarida aniq maʼlumot uchramaydi, fiqhning umumiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda bunday cheklov oʻrnatilishi joiz emas. Tomonlar istagan paytda muzoraba shartnomasini bekor qilishga haqlidir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Mulla Xusrav. Durar al-hukam sharh al-gʻurar al-ahkom. – Saudiya: Dor al-ihya kutub. – J. 2.
2. Alouddin Xaskafiy. Durrul Muxtor sharh at-tanvir al-absor. – Bayrut: Dor al-kutub ilmiyya.
3. Abduaniy Maydoniy. Lubob. – Bayrut: Maktaba ilmiya. – J. 2.
4. An-Navaviy. Ravdat at-Tolibiy. – Saudiya: Maktaba tavqifiyya. – J. 5.
5. Ibn Qudomah. Al Mugʻniy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J.:5.
6. Abdurrahmon Shayxzoda. Majmaʼ anhur sharh multaqa al-abhur. – J. 2.
7. Alouddin al-Kosoni. Badoiʼ as-sanoiʼ. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J: 6.
8. Saraxsiy. Al Mabsut. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. –J: 22.

¹⁴ Alouddin al-Kosoni. Badoiʼ as-sanoiʼ. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J. 6. – B. 99.